

“QADRİNG BALAND BO‘LSIN, ONA TILIM”

*Xodjimatova Nigora Toshmatovna
Toshkent viloyati Angren shahar
34- maktab-internati olyi toifali
Ona tili va adabiyot fani o ‘qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tilimizning qadr-qimmati, ko‘hna tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, din-u diyonatimiz, xalqimizga xos dunyoqarash, histuyg‘ular, tadrijiy taraqqiyotni ko‘rsatadigan, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazadigan ko‘zgu, milliy ma’naviyatimiz belgisi ekanligi, uning betakror jozibasi, jahon hamjiyatida tutgan o‘rni haqida fikr boradi.

Kalit so‘zlar: milliy til, milliy umumbashariy qadriyatlar, millat g‘ururi, tadrijiy taraqqiyot, ong-u shuur, iftixor tuyg‘usi, ma’naviyat ko‘zgusi, millat ruhi, davlat tili maqomi, adabiy til, beba ho so‘z xazinasi, nufuzli anjuman, vatanparvarlik belgisi, so‘z injusi

“Dunyodagi qadimiylar boy tillardan biri bo‘lgan o ‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o ‘zbek va mustaqil davlatchilik timsoli, beba ho ma’naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy –ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida goyat muhim o ‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir”
Shavkat Miriyoyev

Ona tili–ezgu fazilatlar yuksak tuyg‘ular manbayi. U inson kamolotida betakror o‘rin tutadi. Chunki onalarimiz bizga shu tilda alla aytadi, inson uchun hayotiy zarur bilim va tushunchalarini til vositasida ong-u shuurimizga singdiradi, odob-u axloqimiz, fe’l-atvorimiz til orqali berilgan o‘git va nasihatlar asosida shakllanadi. Ayniqsa, inson tafakkurining shakllanishi bevosita til bilan bog‘liq. Chunki biz biron-bir narsaning xususiyatlari haqida o‘ylaganda har biri aniq bir so‘zda ifodasini topgan tushunchalar, fikr va tasavvurlarga tayangan holda uning o‘ziga xos tomonlarini anglaymiz.

Tilda millatning bor- yo‘g‘i, o‘y- fikri, dunyoqarashi, orzu- umidlari, Vatani, ma’naviyati, his- tuyg‘ulari aks etadi. Tildagi har bir so‘z, uning har bir shakli inson tafakkuri hamda tuyg‘usining natijasi bo‘lib, uning yordamida bu tafakkur va tuyg‘ular orqali Vatan, xalq tarixi, milliy- umumbashariy qadriyatlar, eng avvalo, ma’naviyati ifodalanadi . Shuning uchun til-inson tafakkurining ma’naviy jilosi hisoblanadi.

Ona tili- ko‘hna tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, din-u diyonatimiz, xalqimizga xos dunyoqarash, his-tuyg‘ular, tadrijiy taraqqiyotni ko‘rsatadigan, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazadigan ko‘zgudir. Shuning uchun o‘z tilini yo‘qotgan millat o‘zligidan ham mahrum bo‘ladi, ma’naviy zavolga yuz tutadi.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy so'zlari bilan aytganda: «Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotdur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur».

Mayli kim qay tilda zavq-u shavq olsa,
Mening o'z tilimga ming jonim fido .
Erta ona tilim agar yo'qolsa,
Men bugun o'limga bo'lurman rizo.

Til-xalqning, millatning eng buyuk qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun xalqning ozodlikka, o'zligini anglab yetishiga intilishida tilning qadrini tiklash, nufuzini oshirish muhim o'rinni tutadi.

O'zbek adabiy tilining asoschisi, so'z mulkining sultonini bo'lmish hazrat Mir Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasini, millatimizning g'ururi, o'zbek adabiy turkiy tilimizning shon-sharafini dunyoga tarannum etgan so'z san'atkoridir.

Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib kelgan. XX asr boshida ma'rifatparvar bobolarimiz xalqni ilmiga chorlash uchun tilni, alifboni isloh etishga harakat qilgani ham ulkan ma'rifiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'tgan asrning so'ngida esa xalqimizning Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov boshchiligidagi mustaqillik uchun kurash olib borar ekan, tilimizga davlat tili maqomini berish yo'lida sa'y-harakatlar qildi va 1989 yilda bu ishni amalga oshirishda tamal toshini qo'ygan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi. Bu ona tilimiz taraqqiyotida ilgari hech ko'rilmagan yangi davr boshlanganining ifodasi bo'ldi.

Bugungi kunda davlatimizning eng muhim hujjatlari o'zbek tilida yozilmoqda. Ona tilimiz davlatlararo muloqtlarda, dunyoning nufuzli minbarlarida, xalqaro anjumanlarda ham keng qo'llanilmoqda. U istiqlol yillarda milliy g'urur va iftixon manbayiga aylandi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun har yili mamlakatimizda til bayrami sifatida keng nishonlanadi.

Istiqlolimizning ilk yillaridayoq davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni yuksalishi borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ona tilimizning kompyuter va Internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus atama va tushunchalarni talab qiladigan sohalarda keng qo'llana boshlagani, xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani, xususan xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo'ladigan rasmiy uchrashuv va suhbatlarda,

muzokaralar va marosimlarda, nufuzli matbuot anjumanlarida o‘rni va ahamiyati ortib borayotgani barchamizga g‘urur-iftixor tuyg‘ularini bag‘ishlaydi.

Ona tilimizning imkoniyatlaridan keng foydalanish, uning xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori va nufuzini yanada yuksaltirish, eng zamonaviy soha va tarmoqlarda faol qo‘llanilishini ta’minlash bo‘yicha ko‘pgina ishlarni amalga oshirishimiz lozim. Bu haqda o‘ylaganimizda, Birinchi Yurtboshimizning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir va doimo yodda saqlashimiz lozim: “Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan beba ho boyliklarning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishslashimiz zarur. Barcha sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, zarur atama va iboralarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz. Ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida ham ko‘p ish qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarur. Ayniqsa, ba’zan rasmiy muloqtlarda ham adabiy til qoidalariga amal qilmaslik, faqat ma’lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo‘shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Bu haqda so‘z yuritganda, so‘z mulkining sultonı Alisher Navoiyning “Tilga e’tibor- elga e’tibor” degan ibratli hikmatida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz”.

Bugungi kunda shahrimizning ko‘cha va xiyobonlarida, bekatlar, binolarni bezab turgan o‘zbekcha nomlar, shior va lavhalarni ko‘rib , bularning barchasini odatiy bir hol sifatida qabul qilamiz. Biroq “O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi” berilganiga qariyb 30 yil bo‘lishiga kqaramay, ayrim shior va lavhalar yozuvlaridagi imlo xatoliklarini ko‘rib ko‘nglimiz xira tortadi. Aslida ona tilimizning sofligiga, to‘g‘riligiga, mavqeyiga o‘z hissamizni qo‘sish, asrab-avaylash asosiy vazifamiz ekanligini yodda tutishimiz lozim va o‘sib kelayotgan yosh - barkamol avlodni ham shunday ma’naviy ruhda tarbiyalashimiz zarur.

Ona tiliga hurmat va uning beba ho so‘z xazinasidan o‘rinli foydalanish, til vositasida ravshan va ta’sirchan so‘zlab, to‘g‘ri yoza olish hamda nutqiy savodxonlikka erishish shu til vakili bo‘lgan har bir shaxsning fuqarolik burchidir.

Binobarin, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqisi jo‘sh urgan insongina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Biz shunday ma’naviy muhit yarataylikki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlar qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko‘zimizni, qalbimizni yashnatib tursin.

Ona tili insoniyat va hayot chamani lolasining yaprog‘i, so‘z injulari esa uning shudringidir. Ona tilini sevish –vatanparvarlik belgisi, ajdodlar ruhiga hurmat ramzi. O‘z tilini asrab-avaylagan xalq, o‘zligini, g‘ururini asragan bo‘ladi.

Zero, zamonlar osha ulug‘lashga, e’zozlashga va ardoqlashga munosib, hurmat-ehtiromga, mehr-muhabbatga muntazir bo‘lgan, ajdodlarimizdan qolgan meros- ona tilimizni yod so‘zlardan asraylik, uning sofligiga, mavqeyiga hamda yuksalishiga o‘z hissamizni qo‘shishni farzandlik burchimiz deb bilaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” “Ma’naviyat” nashriyoti 2008-yil
2. I.A. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” 1998-yil
3. A. Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” “O‘qituvchi” nashriyoti 1992-yil
4. A. Ibrohimov va boshqalar “Vatan tuyg‘usi” T. “O‘zbekiston” nashriyoti . 1997-yil
5. Internet ma’lumotlari